



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

2024- yil "12" mart

BUYRUQ № 34

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2017- yil 11- sentabrdagi O'RQ-445-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 7- maydagi "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 341-son qaroriga muvofiq statistika organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish yuritishni yanada takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom (keyingi o'rinlarda nizom deb yuritiladi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Statistika agentligi markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tuman (shahar) statistika bo'limlari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mazkur nizomni rahbarlik va ijro uchun qabul qilsinlar.

3. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (G. Salixova), hududiy statistika boshqarmalari, tuman (shahar) statistika bo'limlari rahbarlari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori:

bir hafta muddatda, ushbu nizomni statistika organlarining barcha xodimlariga tanishtirilishini;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish bo'yicha barcha ish yuritish hujjatlarini qat'iy ravishda mazkur nizom talablari asosida yuritilishini ta'minlasinlar.

4. Direktor o‘rinbosarlari, Statistika agentligi markaziy apparati va quyi tizim bo‘linmalari tomonidan nizom talablarini to‘liq va puxta ijrosini ta‘minlanishi yuzasidan qat‘iy nazorat o‘rnatishlar.

5. Mazkur nizom tasdiqlanishi munosabati bilan, Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 28- maydagi 56-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Direktor



B. Begalov